

**UZOQ MUDDAT DAVOLANISHGA MUHTOJ BO'LGAN O'QUVCHILAR
UCHUN GEOMETRIYA FANIDAGI "SIMMETRIK TUSHUNCHALAR"
MAVZUSINI TUSHUNTIRISH USULLARI**

Nurmanova Shasanem Kudaynazarovna

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi "Mehrli maktab" davlat
ta'lim muassasasi Qoraqalpog'iston Respublikasi filiali umumiy o'rta
ta'limni tashkil etish bo'yicha pedagog xodim

Annotatsiya: Ushbu maqola uzoq muddatli statsionar davolanishga muhtoj bo'lgan o'quvchilarga Geometriya fanidagi "Simmetrik tushunchalar" mavzusini o'rgatishning integratsiyalashgan va moslashuvchan (adaptiv) usullarini tadqiq qiladi. Maqolada mazkur o'quvchilarning maxsus psixo-emotsional va jismoniy holatlarini inobatga olgan holda, ta'lim jarayonini soddalashtirilgan, interfaol va amaliyotga asoslangan mashqlar orqali tashkil etishning muhimligi asoslanadi. Asosiy urg'u noan'anaviy, ijodiy pedagogik yondashuvlar (jumladan, art-terapiya elementlari, o'yin texnologiyalari va vizualizatsiya) orqali ikki o'lchamli (Planimetriya) va uch o'lchamli (Stereometriya) simmetriya tushunchalarini tabiat va kundalik hayot misollari bilan bog'lab tushuntirish metodlariga qaratilgan. Taklif etilgan usullar ta'lim natijalarini yaxshilash, o'quvchining mantiqiy va fazoviy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish bilan bir qatorda, dars jarayonini stressni kamaytiruvchi xavfsiz muhitga aylantirishga xizmat qiladi. Maqola simmetriya tushunchasining o'quvchilarning ruhiy holatini barqarorlashtirish va fanga bo'lgan qiziqishini sezilarli darajada oshirishdagi muhim ahamiyatini ko'rsatib beradi.

Kalit so'zlar: uzoq muddat davolanayotgan o'quvchilar, geometriya, simmetriya, interfaol ta'lim, pedagogik yondashuvlar, metodlar, tanqidiy fikrlash, ikki o'lcham, uch o'lcham.

Kirish. Uzoq muddatli davolanishga muhtoj o'quvchilar uchun geometriya fanini o'rgatishda soddalashtirilgan, to'g'ri tashkil etilgan dars jarayoni juda muhim. Shu bois "Simmetrik tushunchalar" mavzusini o'rgatishda amaliyotga asoslangan mashqlar va bolaning sog'lig'i holatiga mos individual yondashuv o'z samarasini beradi.

Nafaqat simmetriya mavzusini, balki har qanday mavzuni tushuntirishda sodda, hayot va tabiat bilan bog'lagan holda tushuntirilsa, bolaning mavzuni o'zlashtirishi oson va fanga bo'lgan qiziqishi yanada ortib boradi. Shuning uchun noan'anaviy, ijodiy va moslashuvchan usullarni qo'llash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'limni tashkil etish imkonini beradi.

Uzoq muddat davolanayotgan o'quvchilar uchun mavzuga oid topshiriqlarni berishda yengil, rasmlil, rangli shakllar bilan moslab tayyorlash kerak. Bu albatta o'tayotgan mavzuga tegishli bo'lishi kerak. Chunki, bola bunday topshiriqlarni oson qabul qiladi.

Darsning asosiy qismiga o'tmasimizdan avval, faollashtiruvchi mashqlar bilan boshlash maqsadga muvofiqdir. Chunki bolaning diqqatini jamlab olishimiz zarur. Buning uchun har bir pedagog o'z mahoratidan kelib chiqqan holda yondashadi. Bizning amaliyotimizda, o'quvchilarni darsga jalb qilishda mantiqiy savollar, matematikaga oid karra jadvallariga asoslangan og'zaki mashqlar va tezkor javobni talab qiluvchi blits savol-javoblar eng samarali ekanini ko'rsatdi.

Blits savol-javoblar oson, qisqa va tez javob berishlari kerak.

Savol javoblar:

1. Matematikaga oid 3 ta termin ayting.
2. M harfidan boshlanadigan meva nomi.
3. Ingliz tilida 3 ta so'z.
4. 3 ta sayyora nomi.
5. Geometriya faniga oid 3 ta termin.
6. N harfidan boshlanadigan shahar nomi.
7. Tezlik qaysi harf bilan belgilanadi.

8. K harfidan boshlanib k harfidan tugaydigan 3 ta soʻz yoki inson aʼzosi ayting, kabi qiziqarli savollar bolaning diqqatini darsga jalb qilishda eng samarali usul.


Geometriya – matematika fanining eng qadimiy va muhim sohalaridan biri. Geometriyaning asosiy tushunchalari nuqta, toʻgʻri chiziq, tekislik, yuza va hajm. Bu tushunchalar asosida barcha geometrik shakllarning xossalari oʻrganiladi. Geometriyada figuralar ikki oʻlchamli figuralar va uch oʻlchamli figuralar guruhiga boʻlinadi.

Ikki oʻlchamli figuralar va uch oʻlchamli figuralar. Bu oʻlchamlardagi figuralarni geometriyaning Planimetriya va Stereometriya boʻlimlarida alohida oʻtiladi. Ikki oʻlchamli figuralarda oʻlchamlar eni va uzunligi, uch oʻlchamlida esa uzunlik, eni va balandligi. Bu oʻlchamlar bilan figuralarning yuza, hajm va ularning xossalarini aniqlash mumkun.

Bugungi asosiy mavzuimiz “Simmetrik tushunchalar”.

Simmetrik tushunchalarni oʻrganish oʻquvchining mantiqiy fikrlashini, atrof-muhitni anglash, fazoviy tushunchalarni idrok etish qobiliyatini rivojlantiradi. Tabiat va sanʼatdagi rang -baranglikni anglashga yordam beradi.

Simmetriya -bu biror narsaning ikki tomondan bir xil boʻlishi. Simmetriya ikkiga boʻlinadi: Oʻqqa nisbatan simmetriya va markazga nisbatan simmetriya.



1-rasm

Markazga nisbatan simmetriya- bu harakatdir.



2-rasm


Bu rasmda quyosh markaziy nuqta hisoblansa, sayyoralar simmetrik jismlardir. Bunga o'xshash misollarni tabiatdan, hayotdan ko'plab keltirishimiz mumkun. Masalan oddiygina kapalak, barg, qor parchalari, hattoki inson yuzi ham simmetriyaga misol bo'la oladi. Tabiatdagi bu go'zallik va mukammallikdan andoza olgan quruvchi, injener va arxitektor kabi ijodkorlar yaratgan ko'plab inshoot va binolar, qurulma va mexanizmlar, texnika va transport vositalari ham simmetrik yaratilgan.



3-rasm

Mavzuni mustaxkamlash uchun bolaning holatidan kelib chiqib, savol javob, amaliy, fikrlash kabi mashqlarni bajarish zarur.

Amaliy mashg'ulot.



Bu rasmda o'qqa nisbatan simmetriya. Rasmni davom ettiring.

Bu mashg'ulot orqali bola yarim shaklni to'g'ri takrorlash uchun mayda detallarga e'tibor qaratadi. Bu uning diqqatini jamlash va kuzatuvchanlik qobiliyatini oshiradi. Chizish, yozish orqali bolaning mayda qo'l motorikasini kuchaytiradi.

Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun psixolog yordami juda muhim. Simmetriya bilan bog'liq chizmachilik, rang berish singari mashqlar bolaga o'z

hissiyotlarini shakl va ranglar orqali ifida etish imkonini beradi. Bu psixologik yengillik va ijodiy tajribani ta'minlaydi.

Xulosa

Geometriya fani inson tafakkurini aniqlikka va tartibga intilishini aks ettiradi. Undagi simmetriya tushunchasi esa tabiat va inson faoliyatida uchraydigan uchraydigan muvozanatni yoritib beradi.

Simmetriya insonning hayotda estetik qarashini, tartib va muvozanatga intilishini namoyon etadi. U nafaqat geometrik tushuncha, balki tabiatda ko'p uchraydigan xususiyat. Go'zallik va bezak vositasi hamdir. Bu tushuncha bolalarga nafaqat matematik bilim beradi, balki ularning tasavvuri, kuzatuvchanligi va hissiy holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar uchun simmetriyaga oid soddalashtirilgan mashg'ulotlar o'yin va art terapiya sifatida xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, simmetriya o'quvchilar uchun nafaqat oddiy mavzu, balki ularning ruhiy holatini barqarorlashtirish, stressni kamaytirish, bu esa sog'lig'iga ijobiy ta'sir qilish va havfsiz muhit yaratishda muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 29.03.2023-yildagi 134-sonli qarori

Yusupova Durdona, Alimbayeva Bunavsha "UZOQ MUDDATLI DAVOLANISHGA MUHTOJ O'QUVCHILARNING PSIXO-EMOTSIONAL VA JISMONIY XUSUSIYATLARI" -2025

<https://bestpublication.net/index.php/pedagog/article/view/3998>

Umumta'lim maktablarida matematika o'qitish masalalari

B. Xaydarov, E. Sariqov, A. Qo'chqorov umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinf geometriya darsligi